



## O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING DAVLAT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Jo'rayeva Munajat Abdubannopovna

Erkin Vohidov uy- muzeyi mudirasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10944606>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 4-aprel 2024 yil

Ma'qullandi: 6-aprel 2024 yil

Nashr qilindi: 8 -aprel 2024 yil

### KEY WORDS

Turizm, turistik xizmatlar,  
sayyohlar, turizm idustiriya,  
korxonalar, mehmonhona, ekskursiya,  
turizm infratuzilmasi.

### ABSTRACT

*Bugungi kunda turizmning dunyo. iqtisodiyotidagi o'rni mustahkamlanib, muhim makroiqtisodiy tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda hududlarning turistik imkoniyatlarni aniqlash va turizmning o'ziga xos turlarini tashkil etishning AF nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llash mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.*

**KIRISH.** Zamonaviy g'arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, qaysiki turist hamda, turistik industriya jamiyat, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlik sifatida qaraladi. Bunda iqtisodiy muammolar turizmning ijtimoiy ekologik aspektlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Gap shundaki bugungi kunda hayotiy strategiya va hayot uslublari qoida bo'yicha bir xil ijtimoiy-siyosiy asoslar ichida shakllanadi, ular shaxsning ijtimoiy tizimidagi muayyan maqomi bilan yuzaga keladi. Ammo shaxs uchun boshqa ijtimoiy guruh vakillarining yashash tarzi ahamiyat kasb eta boshlasa, bu holda ushbu guruhning ahloqiy iste'mol namunalariga mos keluvchi hayot tarziga o'zini namoyon etish yo'li bilan mansubligini ko'rsatishga tayyor bo'ladi. Siyosiy va madaniy bilish turizm talablari segmenti kengaymoqda. Boshqa xalq va davlatlarning madaniyatini, san'tini an'analarini o'rganishga intiluvchi sayohatchilarning katta oqimi yevropaga, Osiyoga va yaqin sharqqa intilmoqda. Sayohatchilarning sport sog'lomlashtirish, davolash va boshqa turdagi turizmlarga siyosiy-madaniy o'rganish motivlarini kengayishi an'anasi kuzatilmoqda. Siyosiy-madaniy o'rganish turizm rivojlanishida xukumat va mahalliy ma'muriyatning madaniy yodgorliklarini avaylab asrash, ularga keluvchi sayyohlar oqimini boshqarishdagi kuch-g'ayratlari muhim o'rin tutadi.

**ASOSIY QISM.** Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohaga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalar ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojiga multiplikativ ta'sir etadigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi. Bundan tashqari turizm insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, insonlarga fan texnika taraqqiyoti jadal rivoji, mehnat intensivligi

natijasida vujudga keladigan his-hayajon va psixologik salbiy ta'sirlarni kamaytirishda sezilarli ko'mak beradi.

Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq turizm sohasi yetarlicha rivojlanmagan O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji pul tushumlari ko'payishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

1992 yildayoq "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tizimida 135 korxonalar bor bo'lib, ular ichida jami 10 ming o'rinlik 34 mehmonxona, turbazalar, kempinglar, motellar bor edi. Qiymati asosiy fondlarning 1,6 mlrd so'mni tashkil qilardi, ularning 79 foizi qurilganiga 15-20 yil bo'lgan bino va ishootlar edi. 1992 yil davomida respublikada 408 ming kishiga xizmat ko'rsatildi, ulardan 40 ming kishi Hindiston, Pokiston, Turkiya, Janubiy-SHarqiy Osiyodan, 30 foizi yevropadan va 10 foizi SHimoliy va Lotin Amerikasidan kelgan turistlar edi. CHet ellarga 60 ming kishi yuborildi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi shu yili 1,2 mlrd so'mni, valyuta tushumlari 3,7 mln dollarni, foyda 180 mln so'mni tashkil qildi. 1993 yilga nisbatan chet ellik turistlar soni birmuncha ko'paydi: respublikaga 1993 yilda 43 ming kishi, 1994 yilda 44,8 ming kishi va 1995 yilda 46,3 ming kishi mehmon bo'lib keldi, ammo 1989 yilga nisbatan bu ko'rsatkich baribir ancha kamdir.

1996 yilda respublikada qabul qilingan turistlar soni 550 ming kishiga yetdi, ulardan 165 ming kishi chet ellik turistlardir. Turizm xizmatlari ko'rsatishning valyutadagi (AQSH dollarlarida) hajmi 101,2 mln dollardan 198 mln dollarga ortdi. Valyuta tushumlarini milliy valyutada xisoblaganda turizmning barcha xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 1996 yilga kelib taxminan 9 foizni, valyuta tushumlari esa 67,5 foizni tashkil qildi.

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi 207-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2016-yil 2-dekabrda PQ-2666-son qarori)"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

2016 yilda O'zbekiston turizm sohasini tubdan isloh qilish jarayoni boshlandi. Turizm sohasidagi o'zgarishlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u hududlarning jadal rivojlanishini ta'minlay oladi.

Xususan, 2020 yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlarning soni 96% foizga kamayib, 1,5 mln. nafarga tushib ketdi. Ko'rsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi esa 261 mln. dollarni tashkil etdi.

Aytish lozimki pandemiyaning boshlanish nuqtasi 2019 yilda ko'rsatilgan turistik xizmatlarning umumiy hajmi 1,5 mlrd. dollardan oshgan bo'lsa, eksport ko'rsatkichlari 1,3 milliardga yetib, umumiy xizmatlar eksportining 38,2 foizini tashkil etdi. Koronavirus pandemiyasi sababli yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, «Uzbekistan Safe travel» guaranteed ("O'zbekiston. Xavfsiz sayohat kafolatlangan") loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha sayyohlarga mo'ljallangan bo'lib, jahon standartlariga asoslangan sanitariya-epidemiologik

xavfsizlikning yangi tizimi hisoblanadi. Turizm ob'yektlari va tegishli infratuzilmani, turistik xizmatlarni yangi sanitariya-gigiyena talablari asosida sertifikatlash quyidagilar uchun majburiy bo'ldi:

- barcha davlat chegara punktlari;
- havo, temir yo'l va avtobus bekatlari;
- moddiy-madaniy meros ob'yektlari, muzeylar, teatrlar va boshqalar.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2020 yildagi №4755-sonli Qarori bilan Xavfsiz turizm jamg'armasi Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasining 20 milliard so'm miqdordagi dastlabki to'lovi, shuningdek, «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED» tizimi doirasida joriy etilayotgan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tish uchun to'lanadigan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi to'lov hisobidan shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 maydagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida 2020 yil 1 iyundan 2021 yil 1 martga qadar joylashtirish bo'yicha xizmatlar (mehmonxona xizmatlari) narxining 10 foizi miqdorida joylashtirish vositalarini subsidiyalash ko'zda tutilgan. Umuman olganda, Davlat Rahbarining videosektor yig'ilishida qayd etishiga ko'ra, 1750 ta sub'yektga mol-mulk solig'i, yer va ijtimoiy soliqlar bo'yicha qariyb 60 milliard so'm miqdorida imtiyozlar berildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga hamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda chet ellik sayyohlarni tashrif ko'payishi va yildan yilga ularning kelish daraja ortib borishi. Bu nafaqat mamlaktimiz bo'lgan qiziqishlarini oshishidan dalolat beradi balki, davlatimizga turizm sohasi orqaliq munosib hissa qo'shishimizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2016-yil 2-dekabrda PQ-2666-son qarori
3. Turizm sayyohlik. T.Xoldarov , X.Tulnova Toshkent 2016 yil.
4. Review.uz
5. <https://lex.uz>

